

**IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH  
SHAROITIDA KORXONANING INNOVATSION SALOHIYATINI  
BOSHQARISH**

***Ibragimov G'anijon G'ayratovich***

*- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti, Qo'shma ta'lim dasturlarini  
muvofiglashtirish markaz boshlig'i - Innovatsion menejment kafedrası Phd  
dotsenti*

*Email: [g.ibragimov@tsue.uz](mailto:g.ibragimov@tsue.uz)*

***Ne'matov Suhrob O'tkir o'g'li***

*- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Menejment" fakulteti 3-kurs talabasi*

*Email: [nematovsuhrob2005@gmail.com](mailto:nematovsuhrob2005@gmail.com)*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Innovatsion salohiyatni shakllantirish, uni samarali boshqarish tamoyillari va mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda innovatsiyalarni boshqarish jarayoni korxonada raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy omil sifatida ko'rilgan. Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida innovatsion salohiyatni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:*** Innovatsion salohiyat, innovatsiyalarni boshqarish, iqtisodiy barqarorlik, texnologik yangiliklar, raqobatbardoshlik, samaradorlik, strategik boshqaruv.

***Kirish***

Hozirgi zamon iqtisodiyotining rivojlanishida innovatsiyalar va texnologik yangiliklar muhim o'rin tutadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi bugungi kunda global miqyosda asosiy iqtisodiy strategiyalardan biriga aylangan. Bu konsepsiya nafaqat tabiiy resurslardan samarali foydalanishni, balki kelajak avlodlar uchun zarur shart-sharoitlarni saqlab qolishni ham nazarda tutadi. Aynan

shu nuqtada innovatsiyalar, texnologik rivojlanish va ularni boshqarish muhim rol o'ynaydi. Innovatsion salohiyatni samarali boshqarish korxonalarining nafaqat ichki samaradorligini oshirishga, balki barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayoniga qo'shilishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida korxonaning innovatsion salohiyatini boshqarish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy korxonalarda innovatsion salohiyat korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash va yangi bozorlarga kirishni yengillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, iqtisodiy va ekologik barqarorlikka intilayotgan mamlakatlarda innovatsion salohiyatni samarali boshqarish orqali resurslar iqtisodiyoti va uzoq muddatli rivojlanishga erishish mumkin. Innovatsion salohiyat tushunchasi keng qamrovli bo'lib, korxonaning texnologik, ilmiy-tadqiqot, intellektual va moliyaviy resurslarini o'z ichiga oladi. Ushbu salohiyatni samarali boshqarish korxonaning barqaror rivojlanishi va yangi texnologiyalarni tezkor joriy etish orqali iqtisodiyotning umumiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, korxonalarda innovatsion salohiyatni boshqarish jarayonlarini o'rganish, samarali usullar va mexanizmlarni ishlab chiqish zaruriyati ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi misolida olib qaralganda, innovatsion rivojlanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2017-2021-yillarda "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" qabul qilinib, mamlakatda innovatsiyalarni keng miqyosda joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va korxonalarda texnologik modernizatsiyani amalga oshirish bo'yicha katta qadamlar tashlandi. Lekin bu jarayonda korxonalarining innovatsion salohiyatini samarali boshqarish muammolari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shunday qilib, ushbu maqolaning maqsadi – iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish sharoitida korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish masalasini ilmiy-nazariy asoslash va amaliy yechimlar taklif qilishdan iborat. Maqola doirasida innovatsion salohiyat tushunchasi, uni boshqarishning nazariy

va amaliy jihatlari, shuningdek, barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasi keng yoritiladi.<sup>1</sup>

### ***Metodlar***

Innovatsion salohiyatni boshqarish bo‘yicha nazariy manbalar va ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Xorijiy va mahalliy korxonalarining innovatsion boshqaruv uslublari qiyosiy tahlil qilindi. Innovatsion faoliyat natijalari va korxonalar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi. Real korxonalar misolida innovatsion salohiyatni boshqarish jarayoni o‘rganildi va amaliy xulosalar chiqarildi.

### ***Natijalar***

Innovatsion salohiyatni samarali boshqarish korxonalar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Innovatsiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot sifati va korxonaning texnologik darajasi yaxshilanadi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion salohiyatni boshqarishda ochiq innovatsiyalar modeli va tashqi resurslardan foydalanish samarador natijalar beradi. Mahalliy korxonalarda innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirishda texnologik infratuzilma va ilmiy tadqiqotlarga e‘tibor qaratish zarur. Korxonalarda innovatsion salohiyatni rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va texnologik yangilanishni jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

### ***Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tushunchasi va mezonlari***

Barqaror rivojlanish tushunchasi ilk bor 1987-yilda BMTning Brundtland komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda “barqaror rivojlanish” kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ziyon yetkazmagan holda, hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan jarayon sifatida ta’riflangan. Ushbu konsepsiya iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlar uyg‘unligini ta’minlashni talab qiladi. Bugungi globallashtirilgan iqtisodiy sharoitda har bir mamlakatning barqaror rivojlanishi, ayniqsa, innovatsion faoliyat va texnologik modernizatsiya jarayonlariga bevosita bog‘liqdir.

<sup>1</sup> Porter M. – Raqobatbardoshlik ustunligi. Harvard Business Press, 2008;

Barqaror rivojlanishning asosiy mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

✓ Iqtisodiy samaradorlik - Iqtisodiy samaradorlik resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori natijalarga erishishni anglatadi. Bu mezon korxonalarining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Iqtisodiy samaradorlikning innovatsion faoliyat bilan bog‘liqligi shundaki, texnologik yangiliklar va innovatsiyalar resurslar tejamkorligini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish imkonini beradi.

✓ Ijtimoiy farovonlik – Barqaror rivojlanish nafaqat iqtisodiy o‘shishni, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlashi kerak. Bu mezon aholining bandligi, daromadlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash va hayot sifatini oshirish kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Korxonalarda innovatsion faoliyatning rivojlanishi yangi ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish imkonini beradi.

✓ Ekologik barqarorlik – Ekologik barqarorlik tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyilidir. Hozirgi kunda innovatsiyalar ekologik muammolarni hal qilishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va “yashil” texnologiyalarni joriy etish korxonalarining ekologik barqarorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

✓ Texnologik innovatsiyalar va raqobatbardoshlik – Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik darajasi ko‘p jihatdan texnologik innovatsiyalarning samaradorligi bilan belgilanadi. Innovatsiyalar yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va bozorda yetakchilik qilish imkonini beradi. Shu sababli, barqaror rivojlanish doirasida korxonalarining innovatsion salohiyatini kuchaytirish muhim strategik maqsadlardan biridir.

✓ Tadqiqot va ilmiy-texnik rivojlanish – Ilmiy-tadqiqot ishlari va texnologik rivojlanish barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning muhim

omillaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlar korxonalarda innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.<sup>2</sup>

Barqaror rivojlanish innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Innovatsion faoliyat iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik muammolarni hal etish va jamiyat farovonligini oshirish uchun zarur bo‘lgan texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Korxonalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish:

- ✓ Samarali energiya manbalaridan foydalanishga ko‘maklashadi;
- ✓ Chiqindilarni kamaytirish va resurslarni tejash imkonini beradi;
- ✓ Ijtimoiy infratuzilmalarni yaxshilash va yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

O‘zbekiston misolida olib qaralganda, so‘nggi yillarda mamlakatda innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlash asosiy vazifa sifatida belgilangan.<sup>3</sup>

### **Korxonalarda innovatsion salohiyat tushunchasi va uning tarkibiy qismlari**

Innovatsion salohiyat – bu korxonaning yangi texnologiyalar, mahsulotlar va jarayonlarni ishlab chiqish, joriy etish va amaliyotga tadbiiq etish imkoniyatini belgilovchi ichki va tashqi resurslar majmui hisoblanadi. Innovatsion salohiyat nafaqat moddiy va texnologik bazaga, balki intellektual, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlarga ham bog‘liq. Korxonaning innovatsion salohiyati uning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun muhim omil sifatida e‘tirof etiladi.<sup>4</sup>

Innovatsion salohiyatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

<sup>2</sup> Gusev A.A., Drozdova N.M. – Barqaror rivojlanish iqtisodiyoti. Moskva: “Yurayt” nashriyoti, 2021;

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari – Innovatsion rivojlanish strategiyasi. Rasmiy hujjatlar to‘plami, 2017-2023;

<sup>4</sup> Tidd J., Bessant J. – Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Wiley, 2018;

✓ Texnologik salohiyat-Texnologik salohiyat korxonaning texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha imkoniyatlarini ifodalaydi. Bu ishlab chiqarish quvvatlari, zamonaviy uskunalar, texnologik jarayonlarning avtomatlashtirish darajasi kabi omillar bilan belgilanadi. Innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash korxonaning resurslardan samarali foydalanishiga, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga va sifatni oshirishga xizmat qiladi. Misol: O‘zbekistonning sanoat korxonalarida zamonaviy avtomatlashtirish texnologiyalarini qo‘llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tajribasi.<sup>5</sup>

✓ Ilmiy-tadqiqot salohiyati (R&D)-Ilmiy-tadqiqot ishlari innovatsion salohiyatning asosiy qismlaridan biridir. Korxonaning ilmiy-tadqiqot salohiyati yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayon ko‘pincha universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni talab qiladi. Misol: Xalqaro tajribada ko‘plab korxonalar universitetlar bilan hamkorlik qilib, innovatsion mahsulotlarni joriy etishda muvaffaqiyatga erishmoqda.

✓ Kadrlar va intellektual salohiyat-Innovatsiyalarni yaratish va rivojlantirish inson kapitali bilan bevosita bog‘liq. Yuksak malakali mutaxassislar, ilmiy-texnik bilimlar va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish qobiliyatiga ega kadrlar korxonaning asosiy boyligi hisoblanadi. Misol: O‘zbekiston Respublikasida kadrlarni tayyorlash tizimining modernizatsiya qilinishi, yosh mutaxassislarning ilmiy izlanishlarga jalb etilishi.

✓ Moliyaviy salohiyat-Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan moliyaviy resurslarga bog‘liq. Moliyaviy salohiyat korxonaning ilmiy-tadqiqot ishlari, yangi texnologiyalar va mahsulotlarni ishlab chiqish hamda ularni bozorga joriy etish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni jalb qilish qobiliyatidir. Misol: Davlat va xususiy sektor hamkorligida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.

---

<sup>5</sup> Yusupov M. va boshqalar – Innovatsion menejment. Toshkent: Iqtisodiyot va statistika nashriyoti, 2019;

✓ Tashkiliy va boshqaruv salohiyati-Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli boshqarish samarali boshqaruv tizimini talab qiladi. Korxonada innovatsion loyihalarni boshqarish, strategik rejalashtirish va monitoring qilish, shuningdek, tashkiliy madaniyatning mavjudligi muhim omillardan biridir. Misol: Yirik kompaniyalarda innovatsiyalarni joriy etish uchun maxsus innovatsion bo‘limlar va loyihalar jamoalarining tashkil etilishi.

✓ Axborot va marketing salohiyati-Innovatsion mahsulot va texnologiyalarni samarali joriy etish uchun bozorni tahlil qilish va axborot almashinuvi muhim o‘rin tutadi. Marketing salohiyati innovatsion mahsulotlar uchun talabni shakllantirish va ularni samarali targ‘ib qilish imkonini beradi. Misol: Innovatsion mahsulotlar marketing strategiyasining ishlab chiqilishi va raqamli platformalar orqali iste‘molchilarga yetkazilishi.<sup>6</sup>

### **Innovatsion salohiyatni boshqarish jarayoni va tamoyillari**

Innovatsion salohiyatni boshqarish – bu korxonaning ilmiy-texnologik, intellektual va iqtisodiy imkoniyatlarini to‘liq safarbar etish, innovatsiyalarni samarali joriy etish va ularni rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir. Ushbu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish korxonaning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Innovatsion salohiyatni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Tahlil va diagnostika - Korxonaning innovatsion salohiyatini aniqlash va mavjud resurslarni baholash hisoblanadi. Bunda korxonaning moddiy, intellektual va texnologik resurslarini tahlil qilinadi. Shuningdek, ichki va tashqi muhit imkoniyatlarini baholanadi. Bozor tendentsiyalari va raqobatchilarning innovatsion faoliyatini o‘rganiladi. Misol: Drucker P. ta‘kidlashicha, har qanday innovatsion strategiya diagnostika va aniq tahlil bilan boshlanishi lozim. Korxonada o‘z kuchli tomonlarini aniqlab, o‘zining innovatsion yo‘nalishini tanlashi kerak.

2. Innovatsion strategiyani ishlab chiqish - Innovatsion rivojlanishning aniq yo‘nalishlarini belgilanadi. Ushbu jarayonda, uzoq va qisqa muddatli innovatsion maqsadlarni belgilanadi. Rivojlanish uchun zarur bo‘lgan

<sup>6</sup> Drucker P. – Innovatsiya va tadbirkorlik. Moskva: Alpina Publisher, 2020;



texnologiyalar va ilmiy izlanishlarni aniqlanadi. Resurslar va budjetni rejalashtiradi. Xorijiy tajribaga nazar soladigan bo'lsak, Samsung Electronics o'z innovatsion strategiyasida texnologik tadqiqotlarni ustuvor vazifa sifatida belgilab, strategik rejalashtirish asosida bozorda yetakchi mavqega erishgan.

3. Innovatsiyalarni joriy etish va boshqarish-yangi texnologiyalar va g'oyalarni amaliyotga tatbiq etadi. Bunda, Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ishchi guruhlar tashkil etadi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qiladi. Mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish uchun innovatsiyalarni qo'llaydi. Xorijiy tajribaga tayanadigan bo'lsak, General Electric kompaniyasi innovatsion g'oyalarni joriy etish uchun o'zining "FastWorks" metodikasidan foydalanib, yangi mahsulotlar va jarayonlarni tezkor ishlab chiqishga muvaffaq bo'lmoqda.<sup>7</sup>

Innovatsion salohiyatni samarali boshqarish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Strategik rejalashtirish tamoyili-Innovatsion faoliyatni uzoq muddatli strategik rejalashtirish korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Strategik qarorlar maqsadli va istiqbolli bo'lishi kerak. Bozor tendentsiyalarini oldindan ko'ra bilish zarur. Misol: AQShning Apple kompaniyasi o'z innovatsiyalarini uzoq muddatli strategiyalar orqali rejalashtiradi va har doim bozorda yangi mahsulotlar bilan yetakchilik qiladi.

2. Resurslardan samarali foydalanish tamoyili-Innovatsion faoliyatni boshqarishda korxonaning moddiy, moliyaviy va intellektual resurslarini samarali taqsimlash katta ahamiyatga ega. Innovatsiyalar uchun zarur resurslar doimiy ravishda ta'minlanishi kerak. Resurslarni optimallashtirish va tejash tamoyiliga amal qilish lozim.

3. Ochiq innovatsiyalar tamoyili-Korxonalar faqat ichki salohiyat bilan cheklanmay, tashqi hamkorlar, ilmiy muassasalar va innovatsion markazlar bilan

<sup>7</sup> Chesbrough H. – Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press, 2003;



hamkorlikda ishlashlari kerak. Tashqi innovatsiyalarni o'zlashtirish orqali tezkor rivojlanish mumkin.<sup>8</sup>

### **Xulosa va takliflar**

Innovatsion salohiyatni boshqarish zamonaviy korxonalar uchun asosiy strategik vazifa hisoblanadi. Innovatsiyalarni samarali boshqarish orqali korxonalar nafaqat o'zining raqobatbardoshligini oshiradi, balki barqaror rivojlanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatni to'g'ri boshqarish korxonaning texnologik yangilanishiga, mahsulot sifatining yaxshilanishiga va bozor talablariga tezkor javob berishiga xizmat qiladi.

Innovatsion salohiyatni boshqarish jarayonining har bir bosqichi – tahlil, strategiya ishlab chiqish, innovatsiyalarni joriy etish va monitoring – o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, tizimli yondashuvni talab qiladi. Korxonalar innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishda ochiq innovatsiyalar modelidan foydalanishi, tashqi hamkorlar bilan hamkorlikni kuchaytirishi va barqaror rivojlanish tamoyillarini inobatga olishi lozim. Bu jarayonda texnologik, ilmiy va moliyaviy resurslarning samarali boshqaruvi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yirik xalqaro kompaniyalar innovatsion boshqaruv orqali global bozorlarda yetakchi mavqega ega bo'lishgan. Mahalliy korxonalar ham o'z innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun ilmiy izlanishlar va texnologik yangilanishlarga e'tibor qaratishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion salohiyatni boshqarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi, balki korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi strategik omildir. Innovatsiyalarni uzluksiz rivojlantirish va ularni boshqarish jarayonining takomillashuvi iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashga muhim hissa qo'shadi.

Kelajakda korxonalar innovatsiyalar orqali yangi bozor segmentlarini egallashi, ilmiy-texnologik taraqqiyotga hissa qo'shishi va ijtimoiy-iqtisodiy

---

<sup>8</sup> Schumpeter J.A. – Capitalism, Socialism, and Democracy. Harper & Row, 1976;

muammolarni samarali yechishga xizmat qilishi kutiladi. Shuning uchun innovatsion salohiyatni boshqarish har qanday korxonaga uchun ustuvor yoʻnalish boʻlib qoladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Porter M. – Raqobatbardoshlik ustunligi. Harvard Business Press, 2008;
2. Gusev A.A., Drozdova N.M. – Barqaror rivojlanish iqtisodiyoti. Moskva: “Yurayt” nashriyoti, 2021;
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari – Innovatsion rivojlanish strategiyasi. Rasmiy hujjatlar toʻplami, 2017-2023;
4. Tidd J., Bessant J. – Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Wiley, 2018;
5. Yusupov M. va boshqalar – Innovatsion menejment. Toshkent: Iqtisodiyot va statistika nashriyoti, 2019;
6. Drucker P. – Innovatsiya va tadbirkorlik. Moskva: Alpina Pabliisher, 2020;
7. Chesbrough H. – Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press, 2003;
8. Schumpeter J.A. – Capitalism, Socialism, and Democracy. Harper & Row, 1976;